“Samarkand Marathon” xalqaro xayriya marafoni o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

MAZMUNI:

1. UMUMIY QOIDALAR……. 3
2. TADBIRNI BOSHQARISH……... 3
3. MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI……. 3
4. TADBIR O‘TKAZILADIGAN SANA, JOY VA VAQT…….. 4
5. MASOFALAR, MASOFANI BOSIB O‘TISH UCHUN VAQT CHEGARALARI…… 4
6. TADBIRNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH XARATLARI……. 5
7. ISHTIROKCHILARNI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH…… 5
8. MUSOBAQADA QATNASHISHGA RUXSAT…….. 8
9. ELITE KLASTERGA SARALASH…….. 9
10. START TO‘PLAMLARINI TOPSHIRISH……... 10
11. TADBIR DASTURI……... 11
12. SAQLASH KAMERASI……..... 12
13. NATIJALAR HISOBI VA G‘OLIBLARNI ANIQLASH……. 13
14. G‘OLIBLARNI TAQDIRLASH, YOSH TOIFALARI, MAXSUS KATEGORIYALAR…….. 13
15. PUL MUKOFOTI JAMG‘ARMASI…….. 17
16. MUSOBAQA MARSHRUTIDA HARAKATLANISH QOIDALARI…… 17
17. DISKVALIFIKATSIYA…… 18
18. MUSOBAQANING HAKAMLIK HAY’ATI…….. 18
19. FORS-MAJOR HOLATLAR……..... 19
20. PROTESTLAR VA APELLYATSIYALAR…… 20
21. YAKUNIY QOIDALAR…….. 20
22. ILOVA……..…… 22

1. UMUMIY QOIDALAR

“Samarkand Marathon” Xalqaro xayriya yugurish tadbiri (keyingi o‘rinlarda – Musobaqa, Tadbir) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 277-F-sonli Qarori asosida quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

- madaniyat va san’at obyektlarida inklyuzivlik muammolariga jamoatchilik e’tiborini jalb etish;
- sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish;
- sport turizmini rivojlantirish;
- O‘zbekiston Respublikasi aholisi, shu jumladan yosh avlodni muntazam jismoniy tarbiya va faol sport turlari bilan shug‘ullanishga jalb etish.

2. TADBIRNI BOSHQARISH

2.1. Tadbir tashkilotchisi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi).

2.2. Tadbir quyidagi tashkilotlar ko‘magida o‘tkaziladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi;
- Samarqand viloyati hokimligi.

2.3. Tashkilotchi va Tadbir Tashkiliy qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – «Tashkiliy qo‘mita») o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar taqsimoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

2.4. Tadbirni bevosita o‘tkazish mas’uliyati Tashkiliy qo‘mita va Musobaqa hakamlar hay’atiga yuklatiladi.

3. MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI

3.1. Musobaqada quyidagi yosh toifasidagi shaxslar ishtirok etishiga ruxsat beriladi:

- Marafon – 42 km 195 m – 18 yoshdan katta ishtirokchilar;
- Yarim marafon – 21 km 97,5 m – 18 yoshdan katta ishtirokchilar;
- 10 km yugurish – 16 yoshdan katta ishtirokchilar;
- 5 km yugurish va 5 km (Inclusive) – 13 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;
- 2 km yugurish – 12 yoshdan katta ishtirokchilar;
- 2K NW (Skandinavcha yurish) – 12 yoshdan katta ishtirokchilar;
- KIDS RUN 1000 – 9 - 11 yoshdagi bolalar;
- KIDS RUN 600 – 7 - 8 yoshdagi bolalar;
- KIDS RUN 300 – 5 - 6 yoshdagi bolalar;
- KIDS RUN 60 – 3 - 4 yoshdagi bolalar;

– KIDS RUN 60 (Inclusive) – 3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar uchun.

3.2. Ishtirokchilarga bir nechta masofalarda bir vaqtning o‘zida qatnashishga ruxsat beriladi.

3.3. Musobaqaga ro‘yxatdan o‘tayotganda ishtirokchining yoshi Musobaqa o‘tkaziladigan sanaga nisbatan to‘liq yillar asosida hisoblanadi.

3.4. Musobaqada quyidagilar ishtirok etishi mumkin:

– professional sportchilar va havaskorlar;

– turli yosh toifasidagi ishtirokchilar (masofalarga qarab aniqlanadi);

– nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar.

3.5. Musobaqada ishtirok etish faqat events.samarkandmarathon.uz saytida ro‘yxatdan o‘tgan va start to‘lovini amalga oshirgan shaxslarga ruxsat etiladi.

3.6. Ishtirokchilar quyidagilarga majbur:

– events.samarkandmarathon.uz saytida ro‘yxatdan o‘tish;

– amaldagi shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etish;

– mazkur Nizomda belgilangan Tadbir qoidalariga rioya qilish.

3.7. 5 km yugurish musobaqasida jamoalar ham ishtirok etishi mumkin. Jamoa ishtirokchilari uchun talablar hamda jamoaviy ishtirok etish tartibi ushbu Nizomning ilovasi hisoblangan “Jamoaviy ishtirok etish qoidalari”da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. TADBIRNING SANASI, VAQTI VA O‘TKAZILISH JOYI

4.1. Tadbir o‘tkazilish sanasi va vaqti:

4.1.1. 2025-yil 7-noyabr, 09:00 dan 20:00 gacha;

4.1.2. 2025-yil 8-noyabr, 09:00 dan 22:00 gacha;

4.1.3. 2025-yil 9-noyabr, 06:00 dan 15:00 gacha;

4.2. Tadbir o‘tkazilish joyi: Samarqand shahri, O‘zbekiston Respublikasi.

4.3. Barcha masofalar bo‘yicha start va finish manzili: Samarqand shahri, Registon maydoni.

4.4. Start to‘plamlarini tarqatish Samarqand shahril, Islom Karimov ko‘chasi, Chorsu san’at galereyasi:

4.4.1. 2025-yil 6-noyabr soat 15:00 dan 20:00 gacha;

4.4.2. 2025-yil 7-noyabr soat 12:00 dan 20:00 gacha;

4.4.3. 2025-yil 8-noyabr soat 10:00 dan 20:00 gacha

5. MASOFALAR VA ULARNI BOSIB O‘TISH UCHUN VAQT CHEGARALARI

5.1. Tadbir dasturiga quyidagi masofalar kiritilgan:

– Marafon – 42 km 195 m;

– Yarim marafon – 21 km 97,5 m;

– 10 km yugurish;

– 5 km yugurish va 5 km (Inclusive);
– 2 km yugurish;
– 2K NW – 2 km;
– KIDS RUN 1000;
– KIDS RUN 600;
– KIDS RUN 300;
– KIDS RUN 60;
– KIDS RUN 60 (Inclusive).

5.2. Masofalarni bosib o‘tish uchun vaqt cheklovlari:

– 42 km 195 m masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi 6 soat 00 daqiqa;
– 21 km 97,5 m masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi 3 soat 00 daqiqa;
– 10 km masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi 90 daqiqa;
– 5 km va 5 km (Inclusive) masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi 45 daqiqa;
– 2 km masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi 20 daqiqa;
– 2K NW masofani bosib o‘tish uchun vaqt chegarasi 30 daqiqa.

5.3. Bolalar yugurishlari uchun vaqt cheklovi qo‘yilmaydi, biroq tadbir jadvaliga muvofiq yakunlanadi.

6. TADBIRNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA XARAJATLAR

6.1. Tadbirni tashkil etish va o‘tkazish xarajatlari quyidagi manbalar hisobidan qoplanadi:

– Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan;
– jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya badallari hisobidan;
– qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan.

6.2. Tadbirda ishtirok etish bilan bog‘liq safar, joylashish va oziq-ovqat xarajatlari ishtirokchilarni yuboruvchi tashkilotlar yoki tadbir ishtirokchilarining o‘zi tomonidan qoplanadi.

7. ISHTIROKCHILARNI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH

7.1. Ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish events.samarkandmarathon.uz saytida amalga oshiriladi va 2025-yil 31-oktabr soat 23:59 da yoki qatnashchilar soni belgilangan chegaraga yetganidan so‘ng yakunlanadi:

– marafon – 42 km 195 m – 920 ishtirokchi;
– yarim marafon – 21 km 97,5 m – 1350 ishtirokchi;
– 10 km yugurish – 2700 ishtirokchi;
– 5 km yugurish va 5 km (Inclusive) – 3000 ishtirokchi;
– 2 km yugurish – 1450 ishtirokchi;

– 2K NW – 150 ishtirokchi;
– KIDS RUN 1000 – 150 ishtirokchi;
– KIDS RUN 600 – 100 ishtirokchi;
– KIDS RUN 300 – 95 ishtirokchi;
– KIDS RUN 60 va 60 (Inclusive) – 85 ishtirokchi.

7.2. Korporativ ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish t.me/samarkandmarathon_corporate Telegram manzili yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasi orqali yuborilgan so‘rov orqali amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tish shartlari:
– tashkilotdan qatnashadigan ishtirokchilar soni 10 (o‘n) kishidan ko‘p bo‘lishi kerak;
– agar tashkilot nomidan qatnashayotganlar soni 10 (o‘n) kishidan kam bo‘lsa, ular mustaqil ravishda ro‘yxatdan o‘tadilar.

Korporativ qatnashuv tashkilot tomonidan tuzilgan shartnoma asosida tashkilotchilar hisob raqamiga pul o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Ro‘yxatdan o‘tish so‘rovnoma va maxsus shaklni to‘ldirish asosida amalga oshiriladi.

7.3. Quyidagi shartlarga javob bergan shaxs ro‘yxatdan o‘tgan deb hisoblanadi:
– aniq masofa bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan;
– start to‘lovini amalga oshirgan;
– ishtirokchi raqamini olgan.

7.4. Ro‘yxatdan o‘tish va start to‘lovini amalga oshirish orqali ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan barcha shartlarga roziligini tasdiqlaydi.

Ishtirokchi, shuningdek musobaqa qoidalari bilan tanishganini, o‘z majburiyatlari va javobgarligini anglaganini va Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilangan barcha talablarni bajara olishini tasdiqlaydi.

7.5. Start badallari narxlari:

7.5.1. 2025-yil 31-oktabr soat 23:59 gacha:
– marafon – 42 km 195 m – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
– yarim marafon – 21 km 97,5 m – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
– 10 km yugurish – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
– 5 km yugurish – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;
– 5 km yugurish musobaqasi (Inclusive) – 0 (nol) so‘m (Nizom 7.8-band);
– 2 km yugurish – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;
– 2K NW – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;
– KIDS RUN 1000 – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;

– KIDS RUN 600 – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;

– KIDS RUN 300 – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;

– KIDS RUN 60 – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;

– KIDS RUN 60 (Inclusive) – 0 (nol) so‘m (Nizom 7.8-band).

7.5.2. Tashkilot qo‘mitasining qaroriga binoan qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tish 2025-yil 7 va 8-noyabr kunlari ochilishi mumkin:

– marafon – 42 km 195 m – 400 000 (tort yuz ming) so‘m;

– yarim marafon – 21 km 97,5 m – 400 000 (tort yuz ming) so‘m;

– 10 km – 400 000 (tort yuz ming) so‘m;

– 5 km – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m;

– 5 km yugurish musobaqasi (Inclusive) – 0 (nol) so‘m (Nizom 7.8-band);

– 2 km – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m;

– 2K NW – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m;

– KIDS RUN 1000 – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;

– KIDS RUN 600 – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;

– KIDS RUN 300 – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;

– KIDS RUN 60 – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m.

– KIDS RUN 60 (Inclusive) – 0 (nol) so‘m (Nizom 7.8-band).

7.6. Masofani almashtirish faqat 2025-yil 24-oktabr 23:59 gacha mumkin.

Masofa almashtirish qiymati 50 000 (ellik ming) so‘mni tashkil etadi.

Agar kichik masofadan kattaroqqa o‘tilsa, ishtirokchi narxlar farqini to‘lashi shart.

Agar kattaroq masofadan kichigiga o‘tilsa, farq qaytarilmaydi.

Masofa almashtirish faqat yosh chegaralari va tanlangan masofada bo‘sh joylar mavjud bo‘lsa amalga oshiriladi.

Oldingi start raqami bekor qilinadi va yangi masofaga mos yangi raqam beriladi.

Masofani almashtirish uchun t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz. elektron pochtasiga murojaat qilish kerak.

7.7. Avval slot xarid qilgan ayollar uchun, agar ular Musobaqa o‘tkazilishidan oldin homiladorlik haqida bilib olishsa, slot uchun to‘langan mablag‘ qaytariladi.

Qaytariladigan summa – 0 (nol) so‘m.

Pulni qaytarish uchun t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasiga yozish lozim.

Boshqa hollarda to‘lov qaytarilmaydi.

7.8. Nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar Musobaqada ishtirok etish uchun bepul slot olishlari mumkin.

Buning uchun 2025-yil 31-oktabr 23:59 gacha t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasiga so‘rov yuborilishi lozim.

So‘rov quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Ishtirokchining F.I.O;
- Nogironlikni tasdiqlovchi hujjatlar;
- Tanlangan masofa.

Nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar uchun ajratilgan bepul slotlar soni cheklangan. Agar barcha bepul slotlar tugagan bo‘lsa, Tashkilot qo‘mitasi ishtirokchiga rad javobi berish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

7.9. Musobaqada jamoaviy ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish mazkur Nizomga ilova sifatida keltirilgan jamoaviy ishtirok etish qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8. MUSOBAQADA ISHTIROK ETISH UCHUN TALABLAR

8.1. Ishtirokchining start raqami ko‘krak qismida yoki bel kamarida joylashtirilishi va yaxshi ko‘rinadigan holatda bo‘lishi kerak.

8.2. Start raqamisiz ishtirokchilar musobaqaga qo‘yilmaydi.

8.3. 2K NW yo‘nalishida faqatgina 2 dona nordik yurish tayoqchalariga ega bo‘lgan ishtirokchilar qatnashishlari mumkin.

Ushbu yo‘nalish ishtirokchilari masofani faqat tayoqchalar yordamida bosib o‘tishlari kerak. Yugurish (havoda uchish fazasi), sakrash, chang‘ichilik harakatlarini taqlid qilish yoki bukilgan oyoqlarda harakatlanish taqiqlanadi.

Har bir ishtirokchi o‘zining shaxsiy tayoqchalar to‘plamiga ega bo‘lishi shart. Tashkilotchi tomonidan inventar taqdim etilmaydi.

8.4. Bola aravachasida qatnashish uchun talablar:

- aravacha kuzatuvchining bilagiga mahkamlanadigan xavfsizlik tasmasi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak;
- aravacha g‘ildiraklari havo bilan to‘ldirilgan (shinalik) bo‘lishi lozim;
- aravadagi bola xavfsizlik kamarlariga mahkamlangan bo‘lishi kerak;
- aravachaning old g‘ildiraklari harakatsiz (bloklangan) holatda bo‘lishi kerak.

8.5. Musobaqaning jamoaviy hisobida ishtirok etishga ruxsat mazkur Nizomga ilova sifatida keltirilgan jamoaviy ishtirok etish qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9. ELITE KLASTERIGA SARALASH

9.1. Elite – bu oldindan tasdiqlangan malaka natijalariga ega ishtirokchilar uchun alohida start klasteridir.

9.2. Marafon (42 km 195 m) va yarim marafon (21 km 97,5 m) masofalari bo‘yicha elite toifasiga ro‘yxatdan o‘tish events.samarkandmarathon.uz saytida elektron ro‘yxatdan o‘tgandan keyin amalga oshiriladi.

9.3. Elite toifasiga kirish uchun ishtirokchi 2025-yil 24-oktabr 23:59 gacha ro‘yxatdan o‘tishi va malaka natijalarini tasdiqlovchi hujjatlarni t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yuborishi kerak.

Tasdiq sifatida oxirgi 2 (ikki) yil ichida o‘tkazilgan va bir xil masofaga ega bo‘lgan rasmiy musobaqalar natijalari hisobga olinadi. Ariza ko‘rib chiqilgach, ishtirokchiga elite klasterga qabul qilingani yoki rad etilgani haqida elektron pochta orqali xabar yuboriladi.

9.4. Mobil ilovadagi mashg‘ulot yozuvi malaka natijasi sifatida qabul qilinmaydi.

9.5. Marafon (42 km 195 m) masofasida elite toifasiga nomzodlar uchun zarur bo‘lgan malaka vaqti:

- Erkaklar – 3:00:00 gacha;
- Ayollar – 3:45:00 gacha.

9.6. Yarim marafon (21 km 97,5 m) masofasida elite toifasiga nomzodlar uchun zarur bo‘lgan malaka vaqti:

- Erkaklar – 1:24:00 gacha;
- Ayollar – 1:45:00 gacha.

10. START TO‘PLAMLARINI BERISH

10.1. Musobaqa ishtirokchilari uchun start to‘plamlari:

10.1.1. 2025-yil 6-noyabr, soat 15:00 dan 20:00 gacha;

10.1.2. 2025-yil 7-noyabr, soat 12:00 dan 20:00 gacha;

10.1.3. 2025-yil 8-noyabr, soat 10:00 dan 20:00 gacha.

Start to‘plamlarini berish joyi: Samarqand shahri, Islom Karimov ko‘chasi.

Diqqat! Musobaqa ishtirokchilariga start to‘plamlari boshqa kunlarda berilmaydi.

10.2. Ishtirokchining start to‘plamiga quyidagilar kiradi:

- start raqami natijani qayd etish uchun chip bilan;
- futbolka;
- ryukzak.

10.3. Start to‘plamlarini olish quyidagi hujjatlar taqdim etilgandagina amalga oshiriladi:

10.3.1. Shaxsan olishda:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (asl nusxa yoki elektron versiyasi);
- ishtirokchining ishtirok chog‘ida hayoti va sog‘lig‘iga yetishi mumkin bo‘lgan zarar uchun Tashkilotchi javobgarligini rad etishi haqida ishonchli shaxsga start to‘plamini olish uchun yozilgan tilxatning asl nusxasi. Tilxat shakli events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan.

10.3.2. Ishonchli shaxs orqali olishda:

- ishonchli shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (asl nusxa yoki elektron versiyasi);
- ishtirokchining (ishonch bildiruvchining) shaxsini va yoshini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- ishtirokchining ishtirok chog‘ida hayoti va sog‘lig‘iga yetishi mumkin bo‘lgan zarar uchun Tashkilotchi javobgarligini rad etishi haqida ishonchli shaxsga start to‘plamini olish uchun yozilgan tilxatning asl nusxasi. Tilxat shakli events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan.

10.4. 18 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar Musobaqada faqat voyaga yetgan shaxs – qonuniy vakili yoki guruh rahbari kuzatuvida ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

Voyaga yetmagan ishtirokchining Musobaqada ishtirok etishiga va start to‘plamini olishga ruxsat berish uchun uning qonuniy vakili quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- qonuniy vakil vakolatini tasdiqlovchi hujjat;
- ota-onaning yozma roziligining asl nusxasi (shakli events.samarkandmarathon.uz saytida mavjud).

Qonuniy vakolatlilikni tasdiqlovchi hujjat sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- bolaning tug‘ilganligi qayd etilganligi haqida ZAGS belgisi mavjud bo‘lgan ota-onaning shaxsni tasdiqlovchi hujjati (asl nusxa yoki elektron versiya);
- agar pasportda ZAGS belgisi yo‘q bo‘lsa – ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (asl yoki elektron versiya) bilan birga bolaning tug‘ilganligi haqidagi guvohnomasi;
- homiylik guvohnomasi bilan birga homiyning shaxsni tasdiqlovchi hujjati;
- voyaga yetmagan ishtirokchining qonuniy vakolatliligini tasdiqlovchi boshqa tegishli hujjatlar.

10.5. Korporativ ishtirokchilar start to‘plamlarini 2025-yil 7–8 noyabr kunlari, 10.1-bandda ko‘rsatilgan muddatlarda olishlari mumkin.

Start to‘plamini olish uchun quyidagilarni taqdim etish zarur:

- ishonchli shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (asl nusxa yoki elektron versiyasi);
- ishtirokchining (ishonch bildiruvchining) shaxsini va yoshini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

– ishtirokchining ishtirok chog‘ida hayoti va sog‘lig‘iga yetishi mumkin bo‘lgan zarar uchun Tashkilotchi javobgarligini rad etishi haqida ishonchli shaxsga start to‘plamini olish uchun yozilgan tilxatning asl nusxasi. Tilxat shakli events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan.

10.6. Bir shaxs Musobaqada ishtirok etuvchilarning 10 (o‘n) tadan ortiq start to‘plamini olish huquqiga ega emas.

11. TADBIR DASTURI

11.1. 2025-yil 06 noyabr:

15:00 - 20:00 – Start to‘plamlarini berish (Islom Karimov ko‘chasi, Samarqand)

11.2. 2025-yil 07 noyabr:

09:00 - 10:30 – Yugurish ekskursiyasi (Registon maydoni, Samarqand)

12:00 - 20:00 – Start to‘plamlarini berish (Islom Karimov ko‘chasi, Samarqand)

12:00 - 20:00 – “Samarkand Marathon” EXPO (Islom Karimov ko‘chasi, Samarqand)

11.3. 2025-yil 8-noyabr:

09:00 - 10:30 – Yugurish ekskursiyasi (Registon maydoni, Samarqand)

10:00 - 20:00 – Start to‘plamlarini berish (Islom Karimov ko‘chasi, Samarqand)

10:00 - 20:00 – “Samarkand Marathon” EXPO (Islom Karimov ko‘chasi, Samarqand)

12:00 – 18:30 – “Samarkand Marathon” lektoriyasi (Islom Karimov ko‘chasi, Samarqand)

14:00 – Start–marra shaharchasining ochilishi, kiyim almashtirish xonalari va omonat javonlarining ishga tushishi

14:15 - 15:15 – Plogging

14:30 – KIDS RUN zonasining ishga tushishi

14:45 – KIDS RUN 60 (Inclusive) masofasi starti

15:00 – KIDS RUN 60 (3-4 yosh, qiz bolalar) masofasi starti

15:03 – KIDS RUN 60 (3-4 yosh, o’g’il bolalar) masofasi starti

15:06 – KIDS RUN 300 (5-6 yosh, qiz bolalar) masofasi starti

15:13 – KIDS RUN 300 (5-6 yosh, o’g’il bolalar) masofasi starti

15:20 – KIDS RUN 600 (7-8 yosh, qiz bolalar) masofasi starti

15:28 – KIDS RUN 600 (7-8 yosh, o’g’il bolalar) masofasi starti

15:36 – KIDS RUN 1000 (9-11 yosh, qiz bolalar) masofasi starti

15:48 – KIDS RUN 1000 (9-11 yosh, o’g’il bolalar) masofasi starti

16:00 – KIDS RUN zonasining yopilishi

16:00 – 2K NW ishtirokchilari uchun chigal yozdi mashqlari

16:15 – 2K NW masofasi starti

16:45 – 2K NW masofasi yopilishi

16:45 – 2 km ishtirokchilari uchun chigal yozdi mashqlari

17:15 – 2 km masofasi starti

17:35 – 2 km masofasi yopilishi

17:35 – Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy hisobda g‘olib taqdirlash marosimi: 2 km

20:00 - 22:00 – Konsert dasturi

11.4. 2025-yil 9-noyabr:

06:00 – Start-marra shaharchasining ochilishi, barcha zonalarning ish boshlanishi

06:45 – 42.2 km, 21.1 km, 10 km, 5 km, 5 km (Inclusive) ishtirokchilari uchun chigal yozdi mashqlari

07:00 – 42.2 km masofasi starti

07:10 – 21.1 km masofasi starti

07:30 – 10 km masofasi starti

07:40 – 5 km, 5 km (Inclusive) masofalari starti

08:25 – 5 km, 5 km (Inclusive) masofalari yopilishi

09:00 – 10 km masofasi yopilishi

10:10 – 21.1 km masofasi yopilishi

11:30 – Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy hisobda g‘olib taqdirlash marosimi: 5 km, 5 km (Inclusive), 10 km, 21,1 km, 42.2 km. Yosh toifalari bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash: 5 km, 10 km, 21,1 km. Jamoaviy hisob bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash

13:00 – 42.2 km masofasi yopilishi

13:00 – Yosh toifalari bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash: 42.2 km. TAN seriyasi yakunlovchilarini taqdirlash

15:00 – Tadbirning rasmiy yopilishi

12. SAQLASH KAMERASI

12.1. Saqlash kamerasiga ishtirokchilar tomonidan start to‘plami tarkibida olingan ryukzaklarda topshirilishi tavsiya etiladi.

12.2. Saqlash kamerasiga chamadonlar, yirik o‘lchamli sumkalar qabul qilinmaydi.

12.3. Ishtirokchilarga saqlash kamerasiga qimmatbaho buyumlar, naqd pul va zargarlik buyumlarini topshirmaslik qat’iy tavsiya etiladi.

12.4. Tashkilotchi ishtirokchining ryukzagi ichidagi buyumlarning saqlanishi uchun javobgar emas.

12.5. Ryukzakdagi buyumlarning yo‘qolishi bo‘yicha shikoyatlar Tashkiliy qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

13. NATIJALAR HISOBI VA G‘OLIBLARNI ANIQLASH

Musobaqadagi yugurish masofalarida g‘oliblar va sovrindorlar World Athletics qoidalariga muvofiq aniqlanadi.

Ishtirokchilarning natijalari Musobaqaning elektron xronometraj tizimi orqali qayd etiladi va Musobaqa hakamlar hay’ati tomonidan tasdiqlanadi.

13.1. Marafon (42 km 195 m) va yarim marafon (21 km 97,5 m) masofalarida g‘olib va sovrindorlar GUN TIME bo‘yicha aniqlanadi.

13.2. 10 km, 5 km va 2 km masofalarda g‘olib va sovrindorlar CHIP TIME bo‘yicha aniqlanadi.

13.3. Musobaqaning rasmiy natijalari events.samarkandmarathon.uz saytida e’lon qilinadi.

13.4. Ishtirokchining natijasi faqatgina start raqami to‘g‘ri tarzda ko‘krakda yoki bel kamarida mahkamlangan bo‘lsa, qayd etiladi.

13.5. Quyidagi holatlarda Tashkiliy qo‘mita ishtirokchining shaxsiy natijasini qayd etilishini kafolatlamaydi:

- chipli raqam noto‘g‘ri mahkamlangan bo‘lsa;
- chipli raqam usti kiyim bilan yopilgan yoki boshqa usulda yashirilgan bo‘lsa;
- chip magnitlanish xususiyatini yo‘qotgan bo‘lsa;
- chip ishtirokchi tomonidan shikastlangan bo‘lsa.

13.6. Natijani tushunish uchun terminologiya:

DNS – Did not start (ishtirokchi startga chiqmagan);

DNF – Did not finish (ishtirokchi finishga yetib bormagan);

DSQ – Disqualified (ishtirokchi diskvalifikatsiya qilingan);

CR – Champion Record (musobaqa rekordi);

GUN TIME – umumiy vaqt – start signali bergan vaqtdan ishtirokchining finish chizig‘idan o‘tgan vaqti orasidagi vaqt;

CHIP TIME – shaxsiy vaqt – ishtirokchining start gilamchasidan bosib o‘tgan vaqtidan finish gilamchasidan o‘tgan vaqti orasidagi vaqt.

14. MUSOBAQA G‘OLIBLARINI TAQDIRLASH, YOSH TOIFALARI, MAXSUS TOIFALAR

14.1. Marafon (42 km 195 m):

14.1.1. Taqdirlash quyidagicha amalga oshiriladi:

- absolyut hisobda: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-3-o‘rinlar;

– yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.1.2. Yosh toifalari:

– 35-39 yosh;
– 40-44 yosh;
– 45-49 yosh;
– 50-54 yosh;
– 55-59 yosh;
– 60-64 yosh;
– 65-69 yosh;
– 70-74 yosh;
– 75-79 yosh;
– 80 yosh va undan katta.

14.2. Yarim marafon (21 km 97,5 m):

14.2.1. Taqdirlash quyidagicha amalga oshiriladi:

– absolyut hisobda: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-3-o‘rinlar;
– yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.2.2. Yosh toifalari:

– 35-39 yosh;
– 40-44 yosh;
– 45-49 yosh;
– 50-54 yosh;
– 55-59 yosh;
– 60-64 yosh;
– 65-69 yosh;
– 70-74 yosh;
– 75-79 yosh;
– 80 yosh va undan katta.

14.3. 10 km yugurish:

14.3.1. Taqdirlash quyidagicha amalga oshiriladi:

– absolyut hisobda: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-3-o‘rinlar;
– yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.3.2. Yosh toifalari:

– 16-17 yosh;
– 35-39 yosh;

– 40-44 yosh;
– 45-49 yosh;
– 50-54 yosh;
– 55-59 yosh;
– 60-64 yosh;
– 65-69 yosh;
– 70-74 yosh;
– 75-79 yosh;
– 80 yosh va undan katta.

14.4. 5 km yugurish:

14.4.1. Taqdirlash quyidagicha amalga oshiriladi:

– absolyut hisobda: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-3-o‘rinlar;
– yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.4.2. Yosh toifalari:

– 13-15 yosh;
– 14-15 yosh;
– 16-17 yosh;
– 35-39 yosh;
– 40-44 yosh;
– 45-49 yosh;
– 50-54 yosh;
– 55-59 yosh;
– 60-64 yosh;
– 65-69 yosh;
– 70-74 yosh;
– 75-79 yosh;
– 80 yosh va undan katta.

14.5. 2 km yugurish:

Taqdirlash absolyut hisobda: erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-3-o‘rinlar.

Yosh toifalari bo‘yicha g‘oliblar aniqlanmaydi, taqdirlash o‘tkazilmaydi.

14.6. 2 km masofaga skandinavcha yurish bo‘yicha taqdirlash o‘tkazilmaydi.

14.7. KIDS RUN 1000, 600, 300, 60, 60 Inclusive bo‘yicha taqdirlash o‘tkazilmaydi.

14.8. 5 km va 5 km (Inclusive) yo‘nalishidagi ishtirokchilarning maxsus toifalari:

14.8.1. Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar:

14.8.1.1. Ko‘rish bo‘yicha I guruh nogironligi (ko‘zi ojiz).

G‘oliblar erkaklar va ayollar o‘rtasida mutlaq toifada 1-3-o‘rin uchun taqdirlanadi.

14.8.1.2. Ko‘rish bo‘yicha II va III guruh nogironligi (zaif ko‘ruvchi).

G‘oliblar erkaklar va ayollar o‘rtasida mutlaq toifada 1-3-o‘rin uchun taqdirlanadi.

14.8.2. Eshitish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar:

14.8.2.1. Eshitish bo‘yicha I guruh nogironligi (kar).

G‘oliblar erkaklar va ayollar o‘rtasida mutlaq toifada 1-3-o‘rin uchun taqdirlanadi.

14.8.2.2. Eshitish bo‘yicha II va III guruh nogironligi (zaif eshituvchi).

G‘oliblar erkaklar va ayollar o‘rtasida mutlaq toifada 1-3-o‘rin uchun taqdirlanadi.

14.9. Marafon (42 km 195 m) va yarim marafon (21 km 97,5 m) masofalari bo‘yicha musobaqa g‘oliblari va sovrindorlari absolyut hisobda quyidagilar bilan taqdirlanadi: pul mukofoti sertifikati, kubok.

Marafon va yarim marafon masofalarining absolyut g‘oliblari yosh toifalarida taqdirlanmaydi.

Yosh toifalaridagi g‘oliblar diplom bilan taqdirlanadi.

14.10. 10 km, 5 km, 5 km Inclusive va 2 km yugurish masofalari bo‘yicha musobaqa g‘oliblari va sovrindorlari absolyut hisobda kubok bilan taqdirlanadi.

10 km, 5 km, 5 km Inclusive va 2 km masofalaridagi yugurishlarda mutlaq toifada g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar yosh toifalari bo‘yicha taqdirlanmaydi.

Yosh toifalari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarga diplom topshiriladi.

14.11. Marafon (42 km 195 m) va yarim marafon (21 km 97,5 m) masofalarida erkaklar va ayollar o‘rtasida trassa rekordi o‘rnatgan ishtirokchilar uchun qo‘shimcha pul mukofoti sertifikati nazarda tutilgan.

14.12. Belgilangan vaqt limiti doirasida marraga yetib kelgan barcha ishtirokchilar esdalik finishchi medali bilan taqdirlanadi.

14.13. Belgilangan vaqt chegaralarida (mazkur Nizomning 5-bo‘limiga muvofiq) masofani yakunlagan barcha ishtirokchilarga finishchi esdalik medali topshiriladi.

14.14. Agar absolyut hisobda yoki yosh toifasida g‘olib bo‘lgan ishtirokchi taqdirlash marosimi vaqtida pul mukofoti sertifikati, kubok yoki diplomni olmagan bo‘lsa, u ularni Tadbir o‘tkazilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida quyidagi manzilda olish huquqiga ega:

Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi).

Mukofotlarni berishning aniq joyi va vaqti rasmiy axborot manbalarida e’lon qilinadi.

15. PUL MUKOFOTI JAMG‘ARMASI

15.1. Marafon (42 km 195 m) va yarim marafon (21 km 97,5 m) masofalarida erkaklar va ayollar o‘rtasida g‘oliblar va sovrindorlar uchun Musobaqa Tashkilotchilari tomonidan pul mukofoti jamg‘armasi belgilanadi, va u quyidagi tarzda taqsimlanadi:

O‘rin	Marafon (42 km 195 m)	Yarim marafon (21 km 97,5 m)
1-o‘rin	30 000 000 so‘m (o‘tiz million)	16 000 000 so‘m (o‘n olti million)
2-o‘rin	25 000 000 so‘m (yigirma besh million)	13 000 000 so‘m (o‘n uch million)
3-o‘rin	20 000 000 so‘m (yigirma million)	11 000 000 so‘m (o‘n bir million)

16. MUSOBAQA YO‘LI BO‘YICHA XULQ-ATVOR QOIDALARI

Musobaqalar World Athletics (keyingi o‘rinlarda – WA) qoidalariga muvofiq o‘tkaziladi.

16.1. Tavsiya etamiz:

- marafon trassasi bilan tanishish;
- ikki yoki undan ortiq ishtirokchi bilan bir qatorda yugurmaslik;
- qadam tashlab ketayotgan paytda yo‘lning o‘ng tomonida harakatlanishni davom ettirish.

16.2. Quyidagilar taqiqlanadi:

- har qanday mexanik harakatlanish vositalaridan foydalanish (samokat, velosiped, rolik va h.k.);
- quloqchin (naushnik) bilan qatnashish. Ishtirokchi hakamlar, Musobaqani tashkil etishda ishtirok etayotgan shaxslar va boshqa ishtirokchilarning ogohlantirishlarini eshitishi kerak;
- hayvonlar bilan qatnashish;
- spirtli ichimlik yoki narkotik modda ta’sirida qatnashish;
- boshqa ishtirokchilar uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan istalgan buyumlar bilan qatnashish;
- trassada to‘xtab qolish. Agar ishtirokchi o‘zini yomon his qilsa, imkon qadar to‘xtab, trassa chetiga chiqib, boshqa ishtirokchilarga halaqit bermasligi lozim;
- boshqa ishtirokchilar harakatiga yoki Musobaqani tashkil etishga har qanday boshqa yo‘l bilan to‘sqinlik qilish;
- rasmiy shaxslar va boshqa shaxslar ishtirokchi ovqat yoki ichimlik olayotgan vaqtda u bilan birga yurish, yugurish yoki harakatlanish huquqiga ega emas.

17. DISKVALIFIKATSIYA

17.1. Tashkilot qo‘mitasi quyidagi hollarda ishtirokchini musobaqadan diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:

- ishtirokchi rasmiy startdan oldin yugurishni boshlagan bo‘lsa;
- ishtirokchi start raqamisiz startga chiqqan bo‘lsa;
- ishtirokchi start zonasi yopilgandan keyin yugurishni boshlagan bo‘lsa;
- ishtirokchi ruxsat etilgan rasmiy oziqlanish punktidan tashqarida suv yoki ovqat olgan bo‘lsa. Bunday holatlardan faqat sog‘lig‘i bo‘yicha sudyalar tomonidan yoki ularning rahbarligida ta’minlangan hollargina mustasno;
- ishtirokchi Tashkilotchi, hakamlar yoki ko‘ngillilarga nisbatan odobsiz, qo‘pol yoki haqoratli so‘zlarni ishlatgan bo‘lsa;
- ishtirokchi Tashkilot qo‘mitasi, hakamlar yoki bosh shifokorning ko‘rsatma va ogohlantirishlariga e’tibor bermagan bo‘lsa;
- ishtirokchi Musobaqa qoidalarini buzgan bo‘lsa.

17.2. Quyidagi hollarda ishtirokchi yakuniy natijalar protokolidan chiqarib tashlanadi:

- ishtirokchi start zonasidan emas, boshqa joydan yugurishni boshlagan bo‘lsa;
- ishtirokchi o‘ziga ajratilgan klasterdan emas, boshqa klasterdan start olgan bo‘lsa;
- ishtirokchi ushbu musobaqaning rasmiy raqamisiz yoki raqami kiyim ostida yashiringan holatda yugurgan bo‘lsa;
- ishtirokchi boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tgan raqam bilan yugurgan bo‘lsa;
- ishtirokchi masofani qisqartirgan bo‘lsa;
- ishtirokchi o‘zi ro‘yxatdan o‘tmagan masofani yugurgan bo‘lsa;
- ishtirokchi harakatlanish uchun mexanik vositadan (velosiped, samokat va boshqalar) foydalangan bo‘lsa;
- ishtirokchi ushbu Nizom qoidalarini buzgan bo‘lsa.

17.3. Musobaqaning jamoaviy hisobida qatnashayotgan jamoalarni diskvalifkatsiya qilish asoslari ushbu Nizomga ilova qilingan Jamoaviy ishtirok etish qoidalarida belgilab qo‘yilgan.

17.4. Tadbir ishtirokchilariga quyidagilar taqiqlanadi ruxsatsiz siyosiy, ijtimoiy va boshqa mitinglar o‘tkazish, provokatsion chaqiriqlar, siyosiy targ‘ibot, norozilik aksiyalari, namoyishlar o‘tkazish, siyosiy yoki ijtimoiy yo‘nalishga oid har qanday atributlar, logotiplardan foydalanish.

18. MUSOBAQA HAKAMLAR HAY’ATI

18.1. Hakamlar hay’ati musobaqa qoidalariga qat’iy rioya qilinishini, ishtirokchilar o‘rtasidagi sport kurashi adolatli va halol o‘tishini, g‘olibning obyektiv aniqlanishini ta’minlaydi.

18.2. Musobaqa hakamlar hay’atiga quyidagilar kiradi:

- bosh hakam;
- texnik menejer;
- vaqt hisoblash tizimi katta hakami;
- start-finish zonasi hakamlari;
- masofa bo‘yicha hakamlar;
- ishtirokchilarni aniqlash va taqdirlash xizmati hakamlari.

19. FORS-MAJOR HOLATLARI

19.1. Tadbir quyidagi favqulodda, kutilmagan va oldini olish yoki bartaraf etish imkoni bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, bekor qilinishi yoki unga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunday holatlarni oqilona bashorat qilish, oldini olish yoki yengib o‘tish imkonsiz bo‘lib, ular Tashkilotchi nazoratidan tashqarida bo‘ladi.

Xususan, quyidagi holatlar fors-major hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, bo‘ron);
- shamol tezligi soniyasiga 15 metrdan yuqori (shu jumladan);
- havo harorati Selsiy bo‘yicha -25°C dan past yoki +30°C dan yuqori (shu jumladan);
- 12 soat yoki undan kam vaqt ichida yog‘ingarchilik miqdori 20 mm va undan ko‘p bo‘lsa;
- changli bo‘ron;
- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan favqulodda deb topilgan hodisalar va ularning ehtimoli to‘g‘risidagi ogohlantirishlar;
- yong‘in;
- ommaviy kasallanishlar (epidemiyalar);
- ish tashlashlar; harbiy harakatlar;
- terrorchilik harakatlari;
- diversiyalar;
- transport cheklovlari;
- davlatlar tomonidan qo‘llanilgan taqiqlovchi chora-tadbirlar;
- savdo operatsiyalariga, jumladan ayrim mamlakatlar bilan savdo qilishga nisbatan xalqaro sanksiyalar qabul qilinishi oqibatida joriy etilgan taqiq;
- davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlarining harakatlari, qarorlari yoki harakatsizligi;
- Tashkilotchining irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar.

19.2. Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar yuz bersa yoki yuz berish xavfi paydo bo‘lsa, natijada Tadbir bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi lozim bo‘lsa, Tadbirda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilarga bu haqda SMS xabari orqali yoki ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga xat yuborish orqali xabar beriladi.

20. PROTEST VA APELLYATSIYALAR

20.1. Har bir ishtirokchi e’lon qilingan dastlabki natijalar protokolida qayd etilgan natijaga nisbatan protest yoki apellyatsiya berish huquqiga ega.

20.2. Protest va apellyatsiya berish tartibi va muddatlari:

20.2.1. Protest og‘zaki shaklda, Tadbir o‘tkazilayotgan vaqtning o‘zida, e’lon qilingan dastlabki yakuniy natijalar bo‘yicha norozilik bildirilar ekan, Musobaqaning bosh hakamiga beriladi.

20.2.2. Apellyatsiya yozma ravishda 2025-yil 12-noyabr (shu kun ham kiradi) gacha marathon@acdf.uz elektron pochta manziliga yuboriladi.

20.2.3. Protest yoki apellyatsiyada ishtirokchining familiyasi va ismi, start raqami, masofa, da’vo mohiyati ko‘rsatilgan bo‘lishi, shuningdek aniqlik kiritishga yordam beruvchi materiallar ilova qilinishi shart.

20.2.4. Protest va apellyatsiyalar faqat ishtirokchilarning o‘zlari yoki ularning rasmiy vakillari tomonidan taqdim etiladi.

20.2.5. Apellyatsiyani ko‘rib chiqish muddati – 5 (besh) ish kunigacha.

20.2.6. Elite klasteridan start oluvchi ishtirokchilar tomonidan yuboriladigan protest va apellyatsiyalar yengil atletika musobaqalarini o‘tkazish qoidalari (World Athletics) – 8-qoida (146-modda)ga muvofiq tarzda amalga oshiriladi:

- og‘zaki protest vakil/sportchi tomonidan natija e’lon qilingan zahoti bildiriladi;
- yozma apellyatsiya ushbu turdagi rasmiy natija e’lon qilinganidan keyin 30 daqiqadan kechiktirmay topshiriladi.

20.3. Natijaning rasmiy e’loni deb events.samarkandmarathon.uz saytida dastlabki yakuniy protokol e’lon qilinishi hisoblanadi.

21. YAKUNIY QOIDALAR

21.1. Ushbu Nizom Musobaqada ishtirok etish uchun rasmiy taklif – chaqiruv hisoblanadi.

21.2. Tashkiliy qo‘mita ishtirokchilarga yetkazilgan zararlar, noxush hodisalar, shaxsiy buyumlarning yo‘qolishi yoki mol-mulkning shikastlanishi uchun javobgar emas.

21.3. Tashkiliy qo‘mita ishtirokchilarning sog‘lig‘i, shuningdek, tayyorgarlik yoki Musobaqa vaqtida yuzaga kelgan jarohatlar, kasalliklar yoki boshqa tibbiy muammolar uchun

javobgar emas. Har bir ishtirokchi o‘z sog‘ligi va jismoniy holatiga to‘liq mas’uldir, va zarurat tug‘ilganda Musobaqada ishtirok etishdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tishga majburdir.

21.4. Ushbu Nizomda ko‘rsatilmagan holatlar Tashkilotchilar tomonidan amaldagi respublika, hududiy va mahalliy huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida alohida tartibda ko‘rib chiqiladi.

21.5. Tashkilotchilar ushbu Nizomga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

“Samarkand Marathon”
yugurish musobaqasini o‘tkazish
to‘g‘risidagi Nizomga ilova

5 KM MASOFAGA JAMOAVIY ISHTIROK ETISH QOIDALARI

1. Jamoa tarkibi va ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar:

1.1. Jamoa 4 nafar ishtirokchidan iborat bo‘ladi: 2 erkak va 2 ayol.

1.2. Jamoa a’zolarining barchasi bir tashkilot xodimlari bo‘lishi (mehnat shartnomasi asosida), shuningdek, “Samarkand Marathon” musobaqasida ishtirokchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi lozim. Tashkilotchi taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish huquqiga ega (masalan, korporativ elektron pochta, HR tomonidan berilgan ma’lumotnoma va h.k.).

2. **Ariza topshirish, ro‘yxatdan o‘tish va jamoa tarkibiga o‘zgartirish kiritish:**

2.1. Jamoani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tashkilot nomi, ishtirokchilarning to‘liq F.I.O.si, ularning start raqamlari va jamoa sardorining telefon raqami ko‘rsatilishi kerak.

2.2. Jamoa 2025-yil 2-noyabrgacha https://push30app.uz/page71733897.html sayti orqali ro‘yxatdan o‘tishi lozim.

2.3. 2025-yil 3-sentyabrgacha jamoa tarkibiga o‘zgartirish kiritish (ishtirokchini almashtirish)ga ruxsat etiladi.

3. **Jamoaviy hisobda ishtirok etish uchun ruxsat:**

3.1. Jamoa a’zolarini hakamlar tomonidan aniqlash uchun, ularga start raqamlari ustiga yopishtiriladigan stikerlar (bilaguzuklar) musobaqa oldidan beriladi.

4. **Natijalarni hisoblash va g‘oliblarni aniqlash tartibi:**

4.1. Jamoaning yakuniy o‘rni a’zolarning absolyut natijalariga ko‘ra hisoblanadi.

4.2. Eng kam ball to‘plagan jamoa g‘olib deb e’tirof etiladi (o‘rinlar yig‘indisi bo‘yicha).

5. **Taqqdirlash:**

5.1. Taqqdirlash jamoaviy hisobda 1–3-o‘rinlarni egallagan jamoalar orasida o‘tkaziladi.

5.2. G‘oliblar va sovrindorlarga quyidagilar topshiriladi:

1-o‘rin – Push30 yillik obunasi (4 dona), kubok;

2-o‘rin – Push30 yarim yillik obunasi (4 dona), kubok;

3-o‘rin – Push30 standart yarim yillik obunasi (4 dona), kubok.

5.3. Berilgan sovg‘alar boshqa shaxslarga topshirilmaydi.

6. **Jamoaning diskvalifikatsiya qilinishi:**

6.1. Quyidagi holatlarda jamoa umumiy hisobdan chiqariladi:

6.1.1. Jamoa a’zolarining raqamlarida belgilangan stikerlar (bilaguzuklar) bo‘lmaganda;

6.1.2. “Nolegal” yuguruvchilar ishtirok etganda (ya’ni, ishtirokchi tashkilot xodimi bo‘lmasa);

6.1.3. Jamoa to‘liq tarkibda marraga yetib kelmagan taqdirda.